

KURASHNING KELIB CHIQISHI VA RIVOJLANISH TARIXI.**Xomudova Feruza***Shaxrisabz davlat pedagogika instituti**Jismoniy madaniyat kafedra mudiri, dotsent.***Ergasheva Zilola***Shaxrisabz davlat pedagogika instituti**Jismoniy madaniyat 4 kurs sirtqi bo'lim talabasi.*

Annotatsiya: Kurashning kelib chiqish tarixi qadim o'tmishga borib taqalgan bo'lsada hozirgi kunga qadar rivojlanib kelayotgan sport turlaridan biri hisoblanadi. Kurash insonni ham jismonan ham ma'nan yetuklikka chorlaydi.

Kalit so'zlar: Kurash, belbog', sport, musobaqa, sportchi, qadimiy, milliy.

Kirish.

Kurash insoniyat tarixidagi eng qadimiy sport turlaridan biri hisoblanadi. Dastlab kurashning shakllanishi insoniyatning o'z - o'zini himoya qilishi va turmish tarzidan kelib chiqqan deya taxmin qilinadi. Ayniqsa O'rta Osiyo hududida kurash keng tarqalgan bo'lib usha davrlardan buyon millioy an ana sifatida ham qaraladi. Kurash har bir xalqning madaniyatida, miliylikida va jismoniy tarbiya tizimida muhim o'rin egallaydi

Asosiy qism

Qadimiy manbalarga ko'ra kuch sinashish, kurash tushish kabi harakatlar Markaziy Osiyo xalqlarida miloddan avvalgi davrlardanoq paydo bo'lgan. Hattoki qadimgi Avsto kitobida ham kuch sinashish turli marosimlar uchun kurashlar hamda jismoniy tarbiyaning bazi harakatlari uchraydi. Keyinchalik esa kurash hayotiy faoliyatdan ajralib chiqqach asosan O'rta Osiyo xalqlari tuy marosimlarida, sayillarida musobaqa tarzida o'tkazila boshlandi. Shu tariqa davrlar o'tib kurash jismoniy tarbiya faoliyatidan o'rin oladi va qonun qoidalari ishlab chiqilib musobaqa tarzida o'tkazila boshlandi.

O'zbekiston kurashining shakllanishi va an'anaviy xususiyatlari haqida gap borar ekan kurash O'zbek xalq miliy sport turi hisoblanadi. O'zbekistonda ush paytlardan buyon kurash xalq sayillarida, navro'z bayramlarida keng miqyosda nishonlanib kelinadi va g'olib hurmatga sazovar bo'libgina qolmasdan turli xil mukofotlarni qo'lga kiritadi.

XX - asrning ikkinchi yarmidan boshlab kurash sport turi sifatida ilmiy asoslanib rivojlanib kelmoqda. O'zbekiston ham mustaqillikka erishgach kurashga katta e'tibor qaratdi. Milliy kurashning nufuzini yanada oshirish maqsadida davlat iyosatida muhim qadamlar qo'yildi. Matijada esa kurash Osiyo o'yinlari, universiada va boshqa yirik

sport dasturlariga kiritildi. Bu esa mamlakatimizning har bir hududida kurash sport turini targ'ib qilish va yosh sportchilarni tayyorlash uchun poydevor bo'lib xizmat qildi. Yirik shaharlardan tortib chekka chekka qishloqlargacha kurash sport turi kirib bordi, har bir maktablar va sport saroylari kurash elementarlari bilan jixozlandi. Bu esa yoshlarni sportga bo'lgan qiziqishini oahiribgina qolmasdan kurash sport turi bilan shug'ullanishiga turtki bo'ldi desak aslo mubolag'a bo'lmaydi.

Kurashda assosan jismoniy sflatlar muhim ahamiyatga ega hisoblanib jismoniy sifatlarni rivojlantirish bilan bir qatorda kurashni ruhiyati bilan ham ishlash muhim ahamiyat kasb etadi. Sababi ruhan tayyor emas sportchi jismoniy qobilyatlarini ishlata olmaydi. Shu sababdan ham trenirlar sportchi bilan ishlayotganda ham uning jismoniy qobilyatlariga ham psixik xususiyatlariga katta e'tibor qaratadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda kurashning kelib chiqish tarixi qadim o'tmishga borib taqaladi va insoniyat bilan hamnafas bo'lib rivojlanib kelmoqda. Shu tariqa kurash sporti inson yashash sharoitidan ajralib chiqib aloxida sport turiga aylandi va qonun qoidalari ishlab chiqilib musobaqa tarzida o'tkazila boshlandi. Shu jumladan kurash O'zbekiston milliy sport turi sifatida ham qaraladi va hozirgi kunda mamlakatimizda kurashga bo'lgan e'tibor katta, sababi kurash bizning qadriyatimiz, milliyligimiz ramzi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I, Yuksak ma'naviyat engilmas kuch".
2. Husanov M Yakubov A. O'zbek kurashi tarixi va rivoji".
3. Turdiyev B, Sport turlari va nazariyasi"